O‘ZBEKISTON MEDIA MAKONIDA TELEKONTENTLARNI TIFLOSHARHLASH: MUAMMO VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ozod Sayfiddinovich Qurbonov,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20303371

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek telekontentlarini ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan tomoshabinlar uchun moslashtirishda tiflosharhlash (audiotavsif) amaliyoti xususida so‘z yuritiladi. Maqolada tiflosharh atamasining paydo bo‘lish tarixi, mazkur amaliyotga qo‘yiladigan umume’tirof etilgan xalqaro talablar va me’yorlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy media makonda telekontentlarni ovozli sharhlashni yo‘lga qo‘yish, kontent tanlash mezonlari va ularni efirga uzatishning teknik yechimlari bo‘yicha mualliflik tavsiyalari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Telekontent, ko‘zi ojizlar, tiflosharh, audiotavsif, televideniye, vizual ma’lumot, jurnalist, tiflosharhlovchi, inklyuziv media.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается практика тифлокомментирования (аудиодескрипции) в адаптации узбекского телеконтента для зрителей с нарушениями зрения. В статье анализируется история возникновения термина «тифлокомментарий», общепризнанные международные требования и стандарты к этой практике. В ходе исследования авторами разработаны рекомендации по внедрению голосового комментирования телеконтента в национальном медиапространстве, критериям отбора контента и техническим решениям его вещания.*

Ключевые слова: *Телеконтент, слепые, тифлокомментарий, аудиодескрипция, телевидение, визуальная информация, журналист, тифлокомментатор, инклюзивные медиа.*

Abstract. *This article discusses the practice of typhlocommenting (audio description) in adapting Uzbek television content for visually impaired viewers. The article analyzes the history of the origin of the term "typhlocommentary", universally recognized international requirements and standards for this practice. In the course of the study, the author developed recommendations on the implementation of voice interpretation of TV content in the national media space, criteria for content selection, and technical solutions for its broadcasting.*

Keywords: *Telecontent, the blind, typhlocommentary, audio description, television, visual information, journalist, typhlo-commentator, inclusive media.*

Kirish. Bugungi global media islohotlar jarayonida aholini axborot bilan ta’minlashning turli zamonaviy va qulay ko‘rinishlari ishlab chiqilmoqda. Axborot iste’molchisi tomonidan ma’lumotlarni to‘siqlarsiz va yengil qabul qilishiga erishish sohaning yetakchi omillaridan biri sanaladi. Ma’lumotlarni faqat matnlarga tayanib emas, balki ularga foto, video va turli grafik belgilarni ilova qilgan holda taqdim etish auditoriya ongida aniqroq tasavvur uyg‘otishga xizmat qilmoqda.

Biroq axborot iste’molchilari orasida aholining alohida qatlami, xususan, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar ham mavjudki, zamonaviy milliy media maydonida ular uchun maxsus qulayliklar yaratishga faol intilish, afsuski, ko‘zga tashlanmaydi. Ayni

yo‘nalishda bosma nashrlarni ovozli formatga o‘tkazish yoki alohida audiojurnallar yaratish, shuningdek, internet ilovalaridan foydalanish uchun o‘zbek tilidagi nutq sintezatorlarini rivojlantirish eng optimal yechim sifatida e’tirof etiladi.

Biroq mamlakatimizda bugunga qadar ommaviy axborot vositalari orasida eng ommabop bo‘lgan televideniye mahsulotlarini, ya’ni telekontentlarni ko‘zi ojizlar ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha amaliy harakatlar yetarlicha kuzatilmagan. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangani sababli ko‘zi ojizlarda teleaxborotga ehtiyoj yo‘qday tuyulsa-da, bu yondashuv noto‘g‘ridir. Telekontentlarni ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirishda dunyo tajribasida keng qo‘llanilib kelayotgan tiflosharh (audiotavsif) amaliyotini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy metod hamda xalqaro media tajribani o‘rganish usullaridan foydalanildi. G‘arb (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) va Rossiya OAV larida ko‘zi ojizlar uchun yaratilgan inklyuziv sharoitlar, tiflosharhlash sohasidagi mavjud yo‘riqnomalar (masalan, ITC Guidance On Standards for Audio Description) hamda ilmiy manbalar o‘rganildi va qiyoslandi.

Atamashunoslik tahlili: «Tiflosharh – bu ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan axborot iste’molchilari uchun tushunarsiz bo‘lgan obyekt, makon yoki harakatning lakonik og‘zaki tavsifidir» [1]. Unda vizual ma’lumotlar ko‘zi ojizlar uchun og‘zaki tarzda ifodalanadi. Jahon tajribasida tiflosharh kinofilmlar, teleko‘rsatuvlar, teatr tomoshalari, turizm (muzey va ko‘rgazmalar) hamda sport musobaqalarida keng tatbiq etilgan [2].

Tarixiy metod: Vizual elementlarni ovozli sharhlash g‘oyasi 1971-yilda amerikalik jurnalist Gregori Frayzer tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u fanga “Audio description” (audio tavsif) atamasini kiritgan [3]. 1974-yilda uning «Ko‘zi ojizlar uchun audio tavsif qo‘llanmasi» nashr etildi. 1980-yillarda AQSHdagi Washington Ear radiostansiyasi va 1981-yilda Teatr uyushmasi hamkorlikda ushbu tizimni rivojlantirdi [3]. Rossiyada esa ilk tiflosharhli film 1978-yilda namoyish etilgan bo‘lib, «tiflokommentirovaniye» (tiflosharh) atamasi 2002-yilda olim S.N. Vanshin tomonidan muomalaga kiritilgan [2].

Tadqiqot natijalari. Bugungi kunda Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda tiflosharhlovchilar uchun maxsus yo‘riqnomalar yaratilgan [4]. Ushbu ko‘rsatmalar tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lsa-da, ularning o‘rtasida muhim umumiylik bor: barcha ko‘rsatmalar tiflosharhda to‘rtta asosiy tarkibiy qism — harakatlar, ijro etuvchi belgilar (personajlar), vaqt hamda joy tasvirlanishi kerakligini ta’kidlaydi [5].

Televideniyeda barcha dasturlarni tiflosharhlash imkonsiz va buning hojati ham yo‘q. Rivojlangan mamlakatlarda barcha teletarmoqlarda ham sarolangan kontentgina efirga uzatiladi. Masalan, Germaniyaning 5 ta yetakchi telekanali o‘z ko‘rsatuvlarining 40 foizini ushbu formatda namoyish etadi.

Informatsion (yangiliklar) yo‘nalishidagi dasturlarda jurnalist matni yetarli bo‘lgani bois tiflosharhga ehtiyoj pastroq deb hisoblansa-da [6], ba’zi lavhalarda (masalan, diqqatga sazovor obyektlar, tabiiy ofatlar, texnogen hodisalar tasvirida) tiflosharh baribir zarur bo‘ladi.

Tadqiqot natijasida tiflosharh amaliyotining uch muhim algoritmi belgilab olindi:

Nimani tasvirlash: Muhim va ikkinchi darajali detallarni ajratish, ortiqcha tafsilotlardan qochish.

Qanday tasvirlash: Adabiy tilda, qisqa va sodda jumlalar bilan, murakkab atamalarsiz ifodalash.

Qachon tasvirlash: Jurnalist yoki boshlovchi nutqi orasidagi pauzalarda (kamida 2 soniyalik pauza vaqtida) gapirish va ikki nutq aralashib ketmasligini ta’minlash.

Muhokama va tavsiyalar. O‘zbekiston media makonida tiflosharhni joriy etishning eng katta muammolaridan biri — bu tiflosharhli dasturlarni oddiy tomoshabinlarga halaqit bermagan holda efirga uzatishdir. Buning uchun zamonaviy raqamli TV texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yassi ekranli zamonaviy televizorlar va raqamli TV-tyunerlar interfeysidagi ko‘p tilli ovoz berish (Audio Track / Dvuxzvukovoy kanal) funksiyasini tiflosharh uchun moslashtirish mumkin. Film yoki ko‘rsatuvni oddiy tomoshabin o‘z tilida ko‘rsa, kozi ojiz inson pultdagi tugma orqali tiflosharhli ovoz yo‘lakchasini (Audiotavsifni) yoqib olishi mumkin bo‘ladi. Ko‘rsatuvlar avvalida esa bu haqda maxsus shartli belgi yoki ovozli ogohlantirish berilishi lozim.

Milliy teleko‘rsatuvlarda tiflosharhni bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish bo‘yicha quyidagi istiqbolli bosqichlar tavsiya etiladi:

1. Ehtiyojni o‘rganish (Ko‘zi ojiz tomoshabinlar foizi va qiziqishlari)

2. Kontent saralash va janrlar bo‘yicha ovozli sharh tayyorlash

3. Sinov tariqasida tarqatish va foydalanuvchilar fikrini to‘plash (Qayta aloqa)

4. Yo‘riqnoma va yakuniy to‘xtamlarni ishlab chiqish

5. Katta ekranlarga (Markaziy telekanallarga) тақдим этиш

Xulosa. O‘zbekiston media makonida telekontentlarga tiflosharhlarni biriktirish — jamiyatda inklyuziv muhitni yaratish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning axborot olish huquqlarini ta’minlashning muhim shartidir. Mazkur amaliyotni yo‘lga qo‘yish tizimli yondashuvni, tiflosharhlovchi kadrlarni tayyorlashni va telekanallarda texnik imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar kelgusida o‘zbek tilidagi ilk tiflo-media mahsulotlarini yaratishga asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chto takoye tiflokommentariy? [Elektronniy resurs]. – URL: https://svettiflo.ru/chto-takoe-tiflokommentirovanie/ (data obrasheniya: 12.03.2026).
2. Polojeniye s audiodeskripsiyey [Elektronniy resurs] // Institut professionalnoy reabilitasii «Reakomp» VOS. – URL: http://rehacomp.ru/polozhenie-s-audiodeskriptsiej/ (data obrasheniya: 15.03.2026).
3. Tiflokommentirovaniye. Istoriya i interesniye fakti [Elektronniy resurs] // Blagotvoritelniy fond Sergeya Bezrukova. – URL: https://fondbezrukova.ru/blog/tiflok-istoriya-i-fakti (data obrasheniya: 20.03.2026).
4. Reviers, N. Audio description services in Europe: an update // The Journal of Specialised Translation. — 2016. — Issue 26. — P. 232-247.
5. Tor Carroggio, I., Vercauteren, G. When East Meets West: A Comparison of Audio Description Guidelines in China and Europe // Hikma. — 2020. — Vol. 19 (1). — P. 170.
6. Who Benefits from Audio Description? // ITC Guidance On Standards for Audio Description. — 2020. — P. 6. [Electronic resource]. – URL: https://www.perkinselearning.org/content/itc-guidance-standards-audio-description (data obrasheniya: 05.04.2026).